

**BOLALAR ADABIYOTI VOSITASIDA BOSHLANG'ICH SINF
O'QUVCHIALARINING IJODIY TASAVVURLARINI RIVOJLANTIRISHNING
AHAMIYATLI JIHATLARI**

Baxriddinova E'zoza Eshboyevna

Osiyo xalqaro universiteti magistri

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalar adabiyoti vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy tasavvurlarini rivojlantirishning ahamiyati yoritiladi. Bolalar adabiyotining ta'lif jarayonidagi o'rni, uning o'quvchilarning estetik didi va ijodiy fikrlash qobiliyatlariga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, turli metod va materiallar yordamida bolalarning tasavvur doirasini kengaytirish usullari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Bolalar adabiyoti, ijodiy tasavvur, boshlang'ich sinf, metod, ta'lif, innovatsion yondashuv.

Kirish

Bolalar adabiyoti yosh avlodning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida muhim o'rinni tutadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun badiiy asarlar faqatgina o'qish materiallari emas, balki ularning tasavvurini boyituvchi, ijodiy tafakkurini shakllantiruvchi manba sifatida xizmat qiladi. Zamonaviy ta'lif jarayonida bolalar adabiyotidan foydalanishning samarali usullari, uning o'quvchilarning fikrlash qobiliyatiga ta'siri masalasi dolzarb hisoblanadi.

Bolalar o'qishi uchun mo'ljallangan asarlar barcha xalqlar tarixida qadimdan davom etib kelgan. O'zbek bolalar adabiyoti ham Sharq yozma adabiyotida "pandnoma", "ma'vizatnoma", "nasihatnoma", "axloq kitoblari" singari nomlar bilan tasnif qilinuvchi asarlar zaminida voqelikka aylangan bo'lsa-da, uning shakllanishi ma'rifatparvarlik – maktab-maorif tizimi islohotlari bilan chambarchas bog'liqligi e'tirof qilinadi. O'zbek bolalar adabiyoti takomilida avvalo ijtimoiy voqelik, so'ngra xalq og'zaki ijodi, didaktik adabiyot, mumtoz bolalar kitobxonligi muhim hodisa sanaladi. O'zbek adabiyotida ma'rifatparvarlik, milliy uyg'onish davri hamda jadidchilik adabiyoti istilohlari zamirida uning o'ziga xos alohida yo'nalishi yanglig' maydonga kelgan bolalar adabiyoti ham dastavval hodisa, istiloh, so'ngra mustaqil fan sifatida inkishof qilinishi yaxlit tizimni tashkil etadi, albatta. Bolalar va o'smirlar uchun yaratilgan badiiy, ilmiy, ilmiy-ommabop va publisistik asarlar majmuyi tom ma'noda bolalar adabiyotini tashkil etsa-da, asosan, sof badiiy asarlar bu tushuncha mohiyatini anglatishi an'anaga aylangan. Bolalar adabiyoti tushunchasi avvalo, turli yoshdagagi bolalar va o'smirlarga mo'ljallangan so'z san'atidir. U voqelikni aynan o'n olti-o'n yetti yoshgacha bo'lgan bolalar idroki, tasavvuri, tafakkur obrazlarida gavdalantiruvchi badiiy asar namunalarini o'zida mujassamlashtiradi.

Asosiy qism

1. Bolalar adabiyotining ijodiy tasavvurga ta'siri

- Badiiy asarlar o'quvchilarning obrazli fikrlashini rivojlantirishga yordam beradi.
- Qahramonlar bilan bog'liq hikoyalar orqali bolalar hayotiy tajribalarni o'zlashtiradi.

Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

- Ertaklar, she'rlar va hikoyalar yordamida bolalar o'zlarining yangi dunyolarini yaratishga intiladi.

Bolalar kitobxonligi tushunchasi, umuman, "kattalar"ning bolalar tarbiyasiga oid qarashlarini aks ettiruvchi turli janr va turli xarakterdagi asarlami qamrab oladi. Bu tipdag'i asarlarda bolalaming yosh xususiyatlari, tushunchasi va dunyoqarashi, bolalar tili va gapirishi manerasiga xos belgilarga rioya qilinmaydi. Bunday o'ziga xoslik xususiyati O'rta Osiyo xalqlari adabiyotlarida, jumladan, o'zbek adabiyotida XX asming boshiga qadar davom etdi. Buni she'riy asarlarda, ayrim hollarda esa nasriy asarlarda ham (ayniqsa, noma va munozara janridagi asarlar misolida) yaqqol ko'rish mumkin. Ma'lumki, kishilikning takomillasha boruvi jamiyat oldiga o'z o'rinnbosarlari tarbiyasiga befarq qaramaslikni ko'ndalang qilib qo'yadi. Bu hol so'z san'atiga qudratbaxsh didaktikani omuxta qiladi. Natijada didaktika mumtoz adabiyotda alohida mavqega ega bo'lib qoldi. Buni yuqorida sanab o'tilgan asarlar misolida ravshanroq ko'rish mumkin. O'zbek bolalar kitobxonligining bu muhim xususiyati Alisher Navoiyning hikmatga aylangan:

Boshni fido ayla ato qoshiga,

Jismni qil sadqa ano boshig'a.

Tun-kuningga aylagali nurfosh,

Birisin oy angla, birisin quyosh!

So'zlaridan chekma qalam tashqari,

Xatlaridan qo'yma qadam tashqari

1 - degan nasihatlaridan tortib, to otashnafas shoir Furqatning "Ko'rар ko'zlaming nuri ilmdandir" deya yurgizgan jo 'shqin she'riy tashviqotlarigacha, xullas, ma'rifatparvarlik g'oyalarini tarannum etuvchi asarlaming hammasida bo'rtib turadi. Bu - nurafshon didaktikadir. Uning zamirida O'rta Osiyo xalqlarining, jumladan, o'zbek xalqining uzoq asrlar mobaynida to'plagan hayotiy tajribalari, pedagogik fikri jamuljamdir.

2. Bolalar adabiyotidan foydalanish metodlari

- **Innovatsion metodlar:** Rolli o'yinlar, interaktiv o'qish, dramatizatsiya.
- **An'anaviy metodlar:** Matnni tahlil qilish, savol-javob, hikoya yozish.
- **Texnologik yondashuvlar:** Multimedia vositalari, audio kitoblar, elektron darsliklar.

3. Ijodiy tasavvurni rivojlantirishda o'qituvchining roli

- O'quvchilarning mustaqil fikrlashiga rag'batlantirish.
- Tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuvni shakllantirish.
- Erkin ijod qilish uchun qulay muhit yaratish.

Metod va materiallar

Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

Maqolada ilmiy-pedagogik manbalar tahlili, kuzatuv, tajriba-sinov ishlari, hamda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va o‘quvchilari o‘rtasida o‘tkazilgan suhbat natijalari asosida xulosalar chiqariladi.

Taklif va tavsiyalar

- Boshlang‘ich sinflarda bolalar adabiyotini kengroq qo‘llash.
- Dars jarayonida badiiy asarlarni tahlil qilish orqali o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini shakllantirish.
- O‘quvchilarning o‘z hikoya va ertaklarini yozishiga sharoit yaratish.
- Zamonaviy texnologiyalarni bolalar adabiyoti bilan uyg‘unlashtirish.

Xulosa

Bolalar adabiyoti boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy tasavvurini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. To‘g‘ri tanlangan metod va materiallar yordamida bolalarning ijodiy fikrashi va tasavvur doirasi kengayadi. O‘qituvchilar va ota-onalar bu jarayonda faol ishtirot etishi zarur.

Adabiyotlar:

1. Ruziyeva, M. Y., & Lobar, S. (2023). Lyro-epic literary fairy tales in uzbek children's literature.
2. Bahrievna, P. N., & Ro'ziyeva, M. Y. (2023). Reforms and Innovations in the Educational System in Uzbekistan. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(6), 47-51.
3. Ro'ziyeva, M. Y. (2020). COLOR SYMBOLISM IN UZBEK FOLKLORE. *Theoretical & Applied Science*, (5), 277-284.
4. Ruzieva, M. Y. (2022). SYMBOLISM OF MYTH, SYMBOL AND COLOR. *Ann. For. Res*, 65(1), 2719-2722.
5. Ruzieva, M. (2016). Colour and its psychoanalytical interpretation in folklore. *Язык и культура* (Новосибирск), (23), 127-130.
6. Икромова, С. А. (2024). ЭМОЦИОНАЛЬНЫЕ ОПЫТЫ ЧЕЛОВЕКА И ПРОЦЕСС НИМИ УПРАВЛЕНИЯ. Introduction of new innovative technologies in education of pedagogy and psychology, 1(3), 14-19.
7. Икромова, С. А. (2024). ПОВЕДЕНИЕ ЧЕЛОВЕКА И ВНУТРЕННЯЯ МОТИВАЦИЯ. Introduction of new innovative technologies in education of pedagogy and psychology, 1(3), 8-13.
8. Икромова, С. А. (2024). ОСНОВЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ЗДОРОВЬЯ. New modern researchers: modern proposals and solutions, 1(2), 22-28.
9. Икромова, С. А. (2024). ГРУППЫ И СОЦИАЛЬНОЕ ВЛИЯНИЕ ЛЮДЕЙ В СОЦИАЛЬНОЙ СРЕДЕ R. Introduction of new innovative technologies in education of pedagogy and psychology, 1(3), 32-38.
10. Икромова, С. А. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ РЕАБИЛИТАЦИЯ, ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ПОДДЕРЖКА И ВОССТАНОВИТЕЛЬНЫЕ ПРОЦЕССЫ. New modern researchers: modern proposals and solutions, 1(2), 56-62.

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

11. Икромова, С. А. (2024). ПСИХОЛОГИЯ ЛИЧНОСТИ И ВНУТРЕННИЙ МИР ЧЕЛОВЕКА. Introduction of new innovative technologies in education of pedagogy and psychology, 1(3), 53-58.